

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDA TIKUVCHI TEXNOLOGIYASI BO'YICHA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI

**Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li**  
*Farg'onan ICHSHUI kasb-hunar maktabi Maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Tikuvchilik yo'nalishida olib borilayotgan darslar davomida turli xil pedagogik turli xil texnologiyalar qo'llanishi samara bermoqda. Bunga asosiy sabab sifatida AKT texnologiyasi, SMART texnologiyasi, noodatiy metodlarni qo'llashni afzal deb bilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, Microsoft office dasturlari, metod, texnologiya, smart, KLASTER, FSMU.*

Hozirgi kunda dars o'tish jarayoni uchun metodlar va pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirib borilmoqda. Buni dars jarayonida muhim bo'lgan omillar ta'minlab beradi. Yurtimizda bo'layotgan yangi qaror va imkoniyatlar oliy ta'limda yangi yo'nalishlarni o'qitish tizimiga kirib kelgan. Bugungi kunda kasb-hunar maktablarida "Tikuvchi", "Yakka tartibda kiyim tikuvchisi" yo'nalishlari uchun Informatika va axborot texnologiyalari fanlari orqali o'quvchilarga kompyuter bilimlari berib kelinmoqda. Bunda asosiy e'tiborli jihatni darsning sifatli va samarali natijalariga erishishga sabab bo'lishi shart.

Yuqoridagi yo'nalishlarida soha uchun qo'llaniladigan fundamental fanlar sifatli kadrni yetishtirish uchun bilim va tajribaga ega kadrlarni tayyorlash muhimdir. Informatika va axborot texnologiyalari fani 2023-2024 o'quv yilida o'quvchilarga kompyuter texnologiyalariga oid ko'nikmalarni shakllantirish uchun fan sifatida o'tib kelinmoqda. Bu fanda o'quvchilar kompyuterdan foydalanish, Microsoft office dasturlari imkoniyatlari va ularda ishlash ko'nikmalari, Photoshop, Coreldraw, dasturlash tili va boshqa dasturlar imkoniyatlaridan foydalanishni o'rganishadi. Tikuvchi yo'nalishida dars davomida quyidagi pedagogik texnologiyalar sinovdan o'tkazildi:

- Klaster metodi
- FSMU metodi
- Swot tahlil
- Bumerang
- Inklyuziv ta'lim
- BBB metodi
- Guruhlash metodi

Klaster metodi deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrleshinga undovchi, ta'lim jarayonining markazida bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan

yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo'lsa o'quvchilar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin.

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli sifatida ta'lim oluvchilarga muammo (mavzu) lar hususida ihtiyyoriy, erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish imkoniyatini yaratadi.

Klaster metodi 1-23 guruhida Informatika va axborot texnologiyalari fanida Ms Office dasturlari bilan ishslash mavzusini o'tishida vazifa va imkoniyatlarini yoritishda foydalanildi. Klaster metodi asosan o'quvchini erkin fikrlashning asosini ohib berishi kuzatildi.

FSMU metodi orqali 2-23 guruhida Photoshop dasturida ishslash mavzusini o'tishida metod orqali shaxsiy kompyuter uchun operatsion tizimni o'rni, foydalanildi

F.S.M.U. metodining tavsifi: Bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiklovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir.

Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

FSMU metodining umumiyo sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

FSMU metodi 2-23 guruhida Photoshop dasturida ishslash mavzusini o'tishida shaxsiy kompyuterda xavfsizlikni ta'minlash va uning imkoniyatlarini yoritishda foydalanildi

Yuqoridaagi metodlar orqali darsni vaqt bo'yicha taqsimlash hamda o'zlashtirish jihatidan o'rganildi. Ushbu metodlarda quyidagi natijalarga erishildi:

1.Klaster metodida 70% o'quvchi bilimni o'zlashtirganligi aniqlandi. Dars mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

Mazkur metodni mashg'ulotlarga quyidagicha qo'llash mumkin:  
Mavzu: "Photoshop dasturida ishlash".

Darsning maqsadi: O'quvchilarda yangi mavzuga aloqador o'tilgan mavzuni mustahkamlash, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish.

Darsni tashkil etish: Yangi mavzuni o'zlashtirishning samaradorligiga erishish uchun o'tilgan mavzular yuzasidan qisqacha takrorlash mashqlari o'tkaziladi. Uni quyidagicha tashkil etish mumkin:

Operatsion tizim haqida nimalarni bilasiz?, Dunyoga mashhur operatsion tizim nomini sanang?, Ularni ishlab chiquvchi firmalar nomini aytib bering?, Zamona viy operatsion tizimlar va uning imkoniyatlari misol keltiring? Undan qanday foydalanish mumkin?

O'tilgan mavzuni takrorlash bilan bo'lajak yosh o'qituvchilari ongida yangi mavzuni o'zlashtirishga zamin hozirlanadi. Bu esa yangi mavzuni o'zlashtirishning samaradorligini ta'minlaydi. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashgulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Har bir guruh a'zosi biror-bir g'oyani ilgari suradi, shundan so'ng barcha g'oyalalar uyg'unlashtiriladi. Buning uchun pedagog bo'lajak o'quvchi 3 yoki 4 guruhga bo'ladi. O'quvchilarga muayyan mavzuni aytadi. Mazkur mavzuni puhta o'zlashtirgunlariga qadar bosib o'tiladigan yo'lning namunasini keltiradi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilari quyidagi muammolar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash, fikrlash imkoniyatiga egadirlar:

Informatika o'rganadigan asosiy obektlar?, U nimaga bog'liq?

Darsning borishi: Takrorlash uchun avvaldan tuzib quyilgan savollar beriladi.

Bakalavr o'qituvchilar shu orqali o'tilgan mavzuni takrorlab olishadi. Pedagog yuqorida keltirilgan metoddan foydalanib, aytilgan fikrlarini o'rta ga tashlaydi. Mazkur bosqichlar bajarib bo'lingach, guruhdagilar o'z fikrlarini uyg'unlashtiradilar, ular o'rtasidagi aloqalarni topib bitta andozaga solishini guruh a'zolarining hukmiga havola etadi. Buning uchun har bir guruhdan vakil saylanadi. Guruh tomonidan jamlangan g'oyalalar turkumi o'qib eshittiriladi. Klaster metodi bo'yicha keltirilgan ushbu bosqichlar bosib o'tilgach, bo'lajak bakalavr informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari o'z-o'zidan yangi mavzuni tushunib oladilar.

Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilar mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bogliq. Innovatsion usullardan foydalanish o'qitiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda ular bilimini oshirish muammosini ham har hil yo'llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtida yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Salohiyat aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi. Salohiyat tushunchasi o'z ichiga maxsus bilimlar, o'ziga hos ko'nikmalar, fikrlash usullarini va o'z harakatlariga javobgarlikni tushunishni qamrab oladi. Yana shu ham

ma'lumki, o'qituvchilar o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, o'zi qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga egadir.

2. FSMU metodida 80% o'quvchi bilimni o'zlashtirganligi aniqlandi.

FSMU metodini amalda qo'llash:

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlarga yoki alohida o'quvchilarga tarqatadi.

1-vazifa. "Ms Office dasturlari bilan ishlash" mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F-\_\_\_\_\_

S-\_\_\_\_\_

M-\_\_\_\_\_

U-\_\_\_\_\_

2-vazifa. "Photoshop dasturida ishlash" mavzusi uzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F-\_\_\_\_\_

S-\_\_\_\_\_

M-\_\_\_\_\_

U-\_\_\_\_\_

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtini belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiylar rahbarlikni amalga oshiradi. O'quvchilar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ularning umumiylar muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

Yengil sanoat texnologiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan asosiy pedagogik texnologiyalar quyidagilardan iborat:

1.Modulli o'qitish texnologiyasi:

- Yengil sanoat mutaxassisligi bo'yicha o'quv materiallarini mantiqiy, mustaqil bo'lakchalarga (modullar) ajratish
- Har bir modul bo'yicha alohida o'quv dasturi, o'quv-uslubiy materiallar, nazorat shakllari ishlab chiqish
- O'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlari moslash imkonini beradi

2.Loyihaviy o'qitish texnologiyasi:

- O'quvchilarni yengil sanoat sohasidagi real muammolarni aniqlash va yechimini topishga yo'naltirish
- Muammoni tahlil qilish, loyihani loyihalash, amalga oshirish va yakuniy natijani himoya qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi
- Kasbiy kompetentlilikni shakllantirish, kreativ fikrlash va mustaqil ish ko'nikmalari rivojlanadi

3.Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi:

- O'quv jarayonini yengil sanoat sohasidagi mutaxassislik talablariga moslashtirish
- Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uzviy bog'lash, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish
- O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalari, kasb mahorati va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish

4.Muammoli o'qitish texnologiyasi:

- O'quvchilarni yengil sanoat texnologiyasi sohasidagi dolzarb muammolar ustida mustaqil fikrlashga undash
- Muammoni tahlil qilish, taxminlar yuzaga keltirish va yechimlarni izlash ko'nikmalarini shakllantirish
- Fanga qiziqish uyg'otish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish

5.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari:

- Multimediali darslar, virtual laboratoriya ishlari, masofaviy ta'lim resurslaridan foydalanish
- Interaktiv usullar, elektron o'quv-uslubiy materiallar, elektron test sinovlarini qo'llash
- O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Ushbu pedagogik texnologiyalar yengil sanoat ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini to'liq shakllantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANLGAN ADABIYOTLAR:**

1. Горовик, А. А., Турсунов, Х. Х. (2021) Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере scratch. UNIVERSUM, 8(77), 27-30.
2. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
- 3.Мукумова, Ф. Х. (2021). МИЛЛИЙ ҲУНАРМАНДЧИЛИК ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ҚИЗИҚТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.77.73.052> Мукумова Феруза Худойқуловна Термиз давлат университети, технологик таълим кафедраси катта ўқитувчisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 154-159.
- 4.Мукумова, Ф. Х. (2021). ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ К УЧЕБНОМУ ПРОЦЕССУ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.83.90.053> Мукумова Феруза Худайкуловна, Преподавательница Термезского

государственного университета. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 150-153.

5.Tursunov, H. N., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

6.Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

7. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA CLOUD-ANDROID, ICLOUD-APPLE IMKONIYATLARI VA FARQLARI. Scientific Impulse, 2(20), 189-193.

9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYADA UCH O'LCHAMLI

10. Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). ZAMONAVIY TA'LIMDA SMM SOHASINI XOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific Impulse, 2(21), 215-219.

11. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

12.Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA SOHA MUTAXASSISLIK FANI BO'YICHA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH. Scientific Impulse, 2(18), 125-131.

13.Тураев, А. А., Хайдаров, Р. М., & Хожиев, Ж. Ж. (2015). Фотовольтаический эффект в диодном режиме включения полевого транзистора. Молодой ученый, (23), 40-43.

14.Mamayusupovich, H. R. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER OF TECHNOLOGY. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).

15.Mamayusupovich, H. R. (2023). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA ELKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI. Наука и технологии, 1(1).

16. Haydarov, R. (2022). TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Физико-технологического образования, (3).

17.Mamayusupovich, H. R. (2022). Design of Educational Technologies in the Development of Professional Competences of Technology Teachers.

18.Хайдаров, Р. М. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИСИНинг КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 273-277.

- 19.Hudaykulovna, M. F., & Qosimov, P. S. U. (2019). Formation of a Conscious Attitude to Study and Work, Ensuring Business Skills for Mental and Physical Development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
- 20.Khudoikulovna, M. F. (2021). The role of heredity in the development of creativity. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 5-6).
- 21.Khudoikulovna, M. F. (2021, March). THINKING MOTIVES THAT ENCOURAGE STUDENTS TO BE CREATIVE. In E-Conference Globe (pp. 65-66).
- 22.Mamayusupovich, H. R. (2024). Development Of Professional Competence Of Future Teachers Of Technology In The Process Of Extracurricular Activities. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(1), 35-37.
- DASTURLARNING IMKONIYATALARI. Scientific Impulse, 2(21), 220-224.
- 23.Кучаров, С. А. (2021). TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 116-118.